

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA FOLKLORIZMDAN FOYDALANISH

Po'lotova Zilola Fayzulloevna.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti 2-bosqich magistranti

zilolapolotova05@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga xalq og'zaki ijodini anglatishdarsliklarning o'rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Ertak, maqol, matal, topishmoq, tez aytish, musiqa, teatr, raqs, folklor.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается роль учебников в обучении народному творчеству учащихся общеобразовательной школы.

Ключевые слова. Сказки, пословицы, загадки, скороговорки, музыка, театр, танец, фольклор.

Xalq og'zaki ijodi - mehnatkash omma ijodi, xalq san'atining boshqa, ya'ni musiqa, teatr, raqs, o'yin, tasviriy va amaliy san'at kabi turlaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan og'zaki so'z san'atidir. Xalq og'zaki ijodi - insoniyatga tengdosh eng qadimiy san'at. Har bir xalqning og'zaki ijodi o'sha xalqning fe'l - atvori, estetik didi, ruhiyati, urf-odat va an'analari, orzu-intilishlari, geografik sharoiti va tabiatini aks ettiruvchi o'ziga xos ko'zgudir. Biz ana shu ko'zgu vositasida olamshumul ezgu niyatlar, insoniy fazilatlar, yovuzlik, zulm, adolatsizlikka qarshi nafrat tuyg'ularini ko'ramiz. Og'zaki so'z san'ati «folklor» yoki «xalq og'zaki poetik ijodi» atamaları bilan ifodalanadi. «Folklor» atamasi ilk bor XIX asr tadqiqotchisi Vilyam Toms tomonidan 1846- yilda qo'llangan bo'lib, «folk» - xalq va «lor» - bilim, donolik, donishmandlik, ya'ni «xalq bilimi», «xalq donoligi», «xalq donishmandligi» demakdir. Xalq og'zaki ijodini o'rganuvchi fan folklorshunoslik deb ataladi. O'zbek xalq og'zaki ijodi eng qadimiy san'atlardan biri

bo‘lib, u jahon xalqlari poetik ijodi taraqqiyotida alohida o‘rin egallaydi. Xalq og‘zaki ijodi asrlar davomida misqollab to‘plangan, ne-ne sinovlardan o‘tgan, insonlarga hamisha madad bo‘lib kelgan noyob xazinadir. Bizning vazifamiz ana shu xazinani ko‘z qorachig‘idek asrash va yanada boyitish hisoblanadi. Boshlang‘ich ta‘limda xalq og‘zaki ijodining ertak, rivoyat, latifa, maqol, topishmoq, tez aytish, sanamalar, xalq qo‘shiqlaridan namunalar beriladi. Shoirlar xalq maqol va matallarini goh aynan, goh o‘zgartirib qo‘llashlari natijasida asl hamda qayta ishlangan folklorizmni hosil qilishadi. Tolib Yo‘ldosh “Hunarni sev” she‘rida “Hunarli er xor bo‘lmas” maqolini sal o‘zgartirib qo‘llyaydi:

O‘rgan, sen ham yigitsan,

Yetmish turi oz senga.

“Hunarli er kam bo‘lmas”

Maqolin ol esingga¹.

Yuqoridagi misralarda xalqning bir maqoli qo‘shirnoqda berilgan bo‘lsa, bir maqoli satr bag‘riga singdirib yuborilgan: “Yigit kishiga 70 hunar oz” Ammo bu o‘rinda shoir xalqdagi ifodani o‘zgartirgan. Shu sabab qo‘shirnoqqa olishni lozim topmagan. Ammo anglash lozimki, bu ham folklorizm. O‘qituvchi maqolni toptirishi lozim. Bu vazifa 3-sinf o‘quvchisiga uncha qiyinlik qilmasligi lozim. Negaki, boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi o‘qish darslarida maqol bilan ko‘p ishlaydi. Chunki “O‘qish kitobi” darsliklarida maqol, topishmoq, tez aytish, ya‘ni folklorning maxsus turiga mansub janrlar doimiy berib boriladi. Ularning har biriga ma‘lum vazifa yuklangan. Tez aytish bola nutqini ravonlashtirsa, topishmoq topqirligini rivojlantirsa, maqol tafakkur qilishga o‘rgatadi:

¹Umarova M., Xamroqulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. – Toshkent: O‘qituvchi NMIU, 2019. – B.56.

Vatan desam yuragim

Navolarga to'lgaydir.

Niyatni yaxshi qilsang,

Navoiy tug'lgaydir¹.

Xalqda “Yaxshi niyat – yarim davlat” degan maqol bor. Toza niyat bilan qilingan tilak ijobat bo'ladi, degan ishonch, asrlardirki, yashab keladi. Shoir bu maqol orqali Uchinchi Renesansni niyat qilganimizga, bu niyat davlat e'tiboridagi masala darajasiga ko'tarilganiga, millatimiz dunyoga yana daholar beradigan davrga yetib kelganiga ishora qiladi. Yosh avlodga bildirilgan bunday ishonch natija bermay qo'ymaydi, albatta. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ushbu she'rdan foydalanib, bolalarda o'ziga ishonch tuyg'usi paydo qilishi lozim. Shoirlar folklor qudratiga tayanib, yosh she'rxonga ta'sir qilishning samarali usullaridan foydalana bildilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Umarova M., Xamroqulova X., Tojiboyeva R. O'qish kitobi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi NMIU, 2019. – B.56.
2. Turdiyeva K. XX asrning 60-80-yillarida o'zbek bolalar she'riyatida ma'naviyat masalalari. Monografiya. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari. – B.9-30.
3. Ashurov B. Tursunboy Adashboevning poetik mahorati. – Toshkent: Fan, 2009. – 140 b.

¹ Umarova M., Xamroqulova X., Tojiboyeva R. O'qish kitobi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi NMIU, 2019. – B.8.